

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Turdiyev	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili	182
B.E.Xusanov	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari	187
F.M.O'sarov	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari	190
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	193
Sh.Sh.Dadaxanov	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	201

SIYOSAT

J.Q.Yusubov	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi	206
B.Yalgashev	
“Siyosiy falsafa” va “Siyosat falsafasi” o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari.....	210
A.Xamdami	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati	214

TARIX

B.A.Usmonov	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar	219
A.H.Адигезалов	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гууам	224
F.X.Utaye , M.A.Muxamedjonova	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni	231
A.H.Boltayev	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar	235
G'R.Mirzayev	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi	239
O.N.Nasirov	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	249
O.I.Rajabov	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar	253
П.Х.Исмоилова	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в туркестане в конце XIX в начале XX века	257
H.S.Yusupov	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati	262
Sh.Y.Oxunjonova	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar).....	265
A.R.Nurmatov, D.X.Boyyeddayev	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim.....	272
П.Х.Исмоилова	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках.....	276
G.X.Xasanboyeva	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar).....	281

OTANIYOZ XO‘JANIYOZ O‘G‘LI NIYOZIYNING MUDARRISLIK FAOLIYATI
УЧИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АТАНИЯЗА СЫН ХОДЖАНИЯЗА НИЯЗИ
PEDAGOGICAL ACTIVITY OF ATANIYOZ KHOJANIYOZ UGLI NIYOZIY

Yusupov Hamidbek Sultanovich¹

¹Urganch davlat pedagogika instituti “Tarix va geografiya” kafedrasida o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Otaniyoz Xo‘janiyoz o‘g‘li Niyoziy hayoti va faoliyati, Xiva va Buxoro madrasalarida ta‘lim olganligi, Xivadagi Abdullaxon va Muhammad Rahimxon II madrasalarida mudarris bo‘lib, talabalarga dars berganligi, o‘qish jarayonini yangi tizim asosida tashkil etganligi, madrasada turli misol va masalalarni yechishga, ya‘ni matematikaga ham qiziqqanligi haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются жизнь и деятельность Отанияза сын Ходжанияза Ниязи, его научное наследие, его образование в медресе Хивы и Бухары, то, что он был учителем в медресе Абдуллахана и Мухаммад Рахимхана II в Хиве, обучал студентов, организовывал учебный процесс по новой системе, решал в медресе различные примеры и задачи, то есть информация, что он также интересуется математикой.

Abstract

In this article there is information on the life and activities of Otaniyoz Khojaniyoz ugli Niyazi, his scientific heritage, his education in the madrasas of Khiva and Bukhara, the fact that he was a teacher in the Madrasas of Abdullah Khan and Muhammad Rahim Khan II in Khiva, he taught students, organized the study process based on a new system, solved various problems in the madrasa, also there is information that he was also interested in mathematics.

Kalit so‘zlar: mudarris, madrasa, oxun, fiqh, riyoziyot, nujum, hattot, masala, devon, shariat, avqof, sarkotib.

Ключевые слова: мударрис, медресе, чтение, фикх, математика, астрология, хаттот, масала, деван, шариат, авкаф, саркотиб.

Key words: teacher, senior teacher, law, astronomy, book copier, hard subject, council, religious knowledge, secretary.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning tarixi, ulug‘ ajdodlarimizning ma‘naviy merosini keng va xolisona o‘rganishda yaxshi natijalarga erishila boshlandi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: “...milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo‘shgan olim-u fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o‘rganish zarur” [1]. Ana shunday ma‘rifatli ajdodlarimizdan biri, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Xiva madrasalarida tahsil olib, keyinchalik madrasada mudarrislik qilgan Otaniyoz Niyoziy edi. Avvalo, mudarris sharafli kasblardan biri edi. Mudarris (arab-dars beruvchi) – madrasa o‘qituvchisi. Madrasalar o‘qitiladigan muayyan fandan dars bergan. Madrasadagi eng nufuzli kishi mudarris hisoblanadi. Otaniyoz Niyoziy XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida ijtimoiy hayotda tub tarixiy o‘zgarishlar yuz bergan davrda madrasada talabalarga o‘qish jarayonini yangi tizim asosida tashkil etganligi bilan ham ajralib turgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilganda, shu davrda yashab ijod etgan Hasanmurod Laffasiy va Bobojon Tarroh asarlarini keltirib o‘tish joiz. H.Laffasiyning “Tazkirayi shuaro” asarida Otaniyoz Niyoziyning Xiva madrasasida tahsil olganligi va bir necha sharq tillarini o‘rganganligi qayd etiladi. B.Tarrohning “Xorazm navozandalari” asarida Otaniyoz Niyoziyning 7 ta ilmni egallaganligi va Xiva xoni Feruzning nazariga tushganligi haqida ma‘lumotlar uchraydi. Mustaqillik yillarida Otaniyoz Niyoziy merosi bo‘yicha tadqiqotchilar D.G‘ayipov va F.Zohidning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ushbu asarlar masalaga oid turli nuqtalardan kompleks yondashish imkoniyatini beradi.

TARIX

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani yozishda mavzuga doir tarixiy manbalar tahlili amalga oshirildi hamda tarixiy tizimlilik, xronologik yondashuv hamda analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA

Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziy 1844-yilda Xorazm viloyatining hozirgi Shovot tumanidagi Bo'yrachi qishlog'ida tug'ilgan. Niyoziyning tug'ilgan joyi bo'yicha Laffasiy tazkirasida "Shohiobod Qiyoli qishlog'i" deb tilga olinsa, Bobojon Tarroh tazkirasida Shovot tumanining Chotko'pir qishlog'ida deb qayd etiladi. Aniqlashimiz bo'yicha, Otaniyoz Niyoziy Bo'yrachi qishlog'i Qiyoli mahallasida tug'ilgan. Uning otasi Xo'janiyoz Boboniyoz o'g'li o'z davrining teran fikr, ilmga e'tiqodli, adabiyot va san'atga ixlosmand kishisi bo'lgan. Shuning uchun ham u o'g'lining ilm olishi, yaxshi tarbiya ko'rib voyaga yetishi uchun jiddiy uringan. Otaniyoz ham otasining umid va ishonchlarini to'la oqlaydigan darajada layoqat sohibi bo'lgan. Boshlang'ich ta'limni o'z qishlog'ida olgach, u Xivaga kelib, Arabxon madrasasida tahsil ko'radi, diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallab, ma'rifat ahli orasida e'tibor topadi [2]. Otaniyoz Xivada 18 yil yashab, badiiy ijod va ilm bilan shug'ullanadi, oxunlik maqomiga erishadi, so'ngra Buxoroga kelib, yetuk ulamolar, fiqh ilmi bilimdonlaridan ta'lim oladi. Uning bu xususdagi nufuz va obro'si el orasida keng tarqalgan bo'lib, shulardan biri keksalar tilidan yozib olingan: "Buxoroyi sharifda tahsil ko'rib qaytgan Otaniyoz oxun ilmida benazirligi bilan nom chiqaradi. Xorazmlik boylardan biri o'g'lini Buxoroda o'qitish niyatida Otaniyoz oxun tahsil ko'rgan mudarris huzuriga olib boradi va maqsadini izhor qiladi. Shunda mudarris: "Ilm izlab uzoq yo'l bosib, o'g'lingizni Buxoroga keltiribsiz. Bizdagi ilmning barchasini Otaniyoz qora degan yigit (oxunning laqabi) Xorazmga olib ketdi. Daryo Xorazmga qarab oqdi. Farzandingiz undan bahrayob bo'lsin", degan ekan [3]. Shuningdek, Otaniyoz oxun arab va fors tillarini o'rganib, riyoziyot, nujum, san'at va boshqa fanlardan ham yaxshi xabardor bo'lgan. Bobojon Tarroh ham bu fikrni ta'kidlab yozishicha, "U eski maktabni to'liq bitkazib, madrasa ta'limini ham to'liq olg'on. Soz ilmiga qiziqib, Polvon Mirzaboshining olti maqomiga yarim maqom qo'shishda Mirzoga yordamlashg'on" [4].

Xivada madrasada tahsil olish yillari Otaniyoz uchun chinakamiga o'qib-o'rganish, ilm va bir necha sharq tillarini qunt bilan egallash davri bo'lgan. Laffasiy "Tazkirayi shuaro" sida bu xususda mulohaza yuritib deydi: "Otaniyoz otasining rizoligi birlan Xivaga kelib, ilm tahsili uchun madrasada istiqomatlar qilib, onchalig' riyozatlar ko'rib, o'zining qobiliyatligi orqasida bir necha muddatlar mehnatlar ko'rib, xatmi kitob qiladur. Ammo Niyoziykim Otaniyoz qora mulaqqablig' bo'lub, ondag' xushxat, xushxon bo'ludurki, zamon Arastu Aflotunlari Niyoziyning qalam raxshin chobukvorliq bilan, varaqlar sahifayi sahrosida xushraftorlik bilan surishiga musallam qilib, angushtlarin hayrat dandonlari bilan tishlab, alhazar qilur edilar" [5].

Darhaqiqat, Niyoziy faqat ilmi bilan emas, xushxatligi bilan ham tez dovrug' taratadi. Bundan xabar topgan Muhammad Rahimxon uni o'z saroyiga chorlaydi va unga o'z devonxonasining birinchi kotibliqi vazifasini topshiradi. Shu bilan barobar Niyoziy Abdullaxon madrasasiga mudarris etib ham tayinlaydi. 40 yoshdan she'r yozish bilan shug'ullana boshladi. U mansabdor va mudarris bo'lishiga qaramasdan, o'zining oddiyligi, kamtarligi, ayniqsa, xalq bilan, muomala-munosabatidagi tabiiylikni sira boy bermagan edi. Bobojon Tarroh aytmoqchi, "O'rta bo'yli, soqoli moshguruch, xushbichim, dono" bu odamning "xalq bilan armoyishi" va ilm ahli bilan aloqasi hamisha yaxshi bo'lgan [6].

Otaniyoz oxun Niyoziyning til o'rganish qobiliyatini hamda xattotlik va kitobot ilmining o'ta murakkab turlarini, nozik qirralarini puxta bilishini inobatga olgan Muhammad Rahimxon uning tarbiyasiga alohida e'tibor beradi. Otaniyoz oxun 7 ilmga ega edi:

1. Madrasa ta'limini birinchi o'rinda bitkazgan.
2. Arab, forsiy tillari ilmini ham yaxshi bilgan.
3. Xattotlikni yaxshi o'zlashtirgan.
4. Masala yozishda matematik olim bo'lgan.
5. Musiqashunoslikni yaxshi egallagan uchun Komil Xorazmiyning vafotidan keyin katta o'g'li Muhammad Rasul otasining olti maqomiga yarim maqom qo'shg'on vaqtida Otaniyoz oxun ham bu sa'y-harakatga o'z hissasini qo'shgan.
6. Otaniyoz oxun shoirlikda birinchi o'rinda turadi.

7. Muhammad Rahimxon ikkinchi davrida ruscha devonxonada devonlik mansabida bo'lib, ruschani ham ozroq bilar edi.

Otaniyoz Niyoziyning 7 ilmga ega bo'lganligini, o'sha davrda Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida qirqdan ortiq ijodkorga bosh bo'lgan Bobojon Tarroh quyidagicha e'tirof etadi: "Xorazmni 100 yillik tarixida o'zim ishlab bilganman, yana 400 yilqi tarixini o'qib bilganman, shuning uchun Xorazmda Otaniyoz qora oxunga o'xshag'on yetti ilmni ta'rifiga olib ishlag'on ilmiy adib bo'lmag'on, ham eshitilmag'on bo'lishi kerak" [7], - deydi. Chindan ham Niyoziy nafaqat shoir, balki madrasa mudarrisidir.

Niyoziy ijodida XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy ma'naviy hayot yaqqol aks etgan. Niyoziy tengsiz xattot bo'lgani shundan ham ma'lumki, u Feruz boshchiligida tuzilgan "Majmuatush-shuaro"ning litografik nusxasini o'z dastxati bilan tayyorlagan. Ayni paytda, aruz vaznining barcha janrlarida ijod etgan.

Niyoziy g'azallarida o'zi yashab turgan muhitni "g'amxona", deya tavsiflaydi. Zero, chor Rossiyasi Xiva xonligini zabt etgach, oddiy mehnatkash xalq uch taraflama: ham xon amaldorlari, ham rus amaldorlari, ham elni savodsizlikda tutib turgan din peshvolari tomonidan ezilgan [8].

Otaniyoz oxun Xo'janiyoz o'g'li Niyoziy 1922-yil 18-iyunda Muhammad Rahimxonning Ko'hna Ark oldidagi madrasasiga mudarris qilib tayinlanadi. Niyoziy madrasada ish boshlaganida 72 yoshlardan oshgan bo'lib, o'qish jarayonini yangi tizim asosida tashkil etgan ekan. Otaniyoz oxun Niyoziy madrasada turli misol va masalalarni yechishga, ya'ni matematikaga ham qiziqqan.

O'sha davrda maorif-madaniyat nozirligida avqof (vaqf ishlari bo'yicha) sho'basini mudiri bo'lib Muhammad Yusuf Bayoniy ishlagan ekan. Sarkotiblik lavozimini esa, Chokar-Muhammad Yusuf Xarrot boshqargan. Ular maktab-maorif ta'limini yangicha dasturda o'qitishni ishlab chiqqanlar.

Barcha ma'rifatparvar sohiblaridek, Niyoziy ham qanday sharoitda bo'lmasin, xalqqa ziyo yetkazishni ko'zlagan. Oktabr to'ntarishidan so'ng u o'qituvchilik kasbini tanlagan va 1928-yil, ya'ni vafotigacha shu ish bilan mashg'ul bo'lgan.

XULOSA

Qisqacha aytganda Otaniyoz Niyoziy yashagan dastlabki davrda 47-yil Xiva xoni bo'lgan Feruzning bunyodkorlik va ma'rifatparvarlik harakatlari e'tiborga molikdir. Keyinchalik esa jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy tuzumlarining almashinishi, ma'rifiy va demokratik qarashlar targ'iboti har qachongidan kuchayganligi, xalqchilik va haqqoniylik tamoyillari chuqurlashganligi, olim-u mudarrislarining madaniy-ma'naviy hayotdagi faolligi oshganligini kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent: O'zbekiston, 1999. –B. 90.
2. G'ayipov D. Otaniyoz Niyoziy. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 13.
3. Zohidov F. Komiljon Otaniyozovni bilasizmi? – Toshkent: Navro'z, 2003. – B. 12-13.
4. Bobojon Tarroh Azizov - Xodim. Xorazm navozandalari. Nashrga tayyorlovchi Davlatyor Rahim. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. –B. 65.
5. Laffasiy H. Tazkirayi shuaro. Nashrga tayyorlovchi Polvannazir Bobojonov. –Urganch: Xorazm, 1992. –B. 103-104.
6. Otamurodova A. Otaniyozovning otasi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2009-yil 13-fevral. 7-son. – B. 2.